# SHARTNOMA №.01

Chiroqchish tuman "19" iyul 2022 yil

Keyingi o'rinlarda "Buyurtmachi" deb yuritiluvchi Qashqadaryo viloyati Chiroqchituman №19-imkoniyati cheklangan bolalar ucnun ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasasi bir tomondan va Ish yurituvchi rahbari Z.Nazarova va keyingi "Bosh pudratchi" deb "SHOXRUHMIRZO TEXNOLOGIYA" mas'uliyati cheklangan jamiyat nomidan ish yuritiluvchi rahbari U Mirzayeva ushbu shartnomani quyidagi mazmunda tuzdilar.

## 1.SHARTNOMA MAZMUNI.

1.1. "Bosh pudratchi" mazkur shartnoma shartlariga ko'ra "Buyurtmachi" balansida bo`lgan 528.525.398 (Besh yuz yigirma sakkiz million besh yuz yigirma besh ming uch yuz to'qson sakkiz )so`mlik Chiroqchi tuman 19-imkoniyati cheklangan bolalar ucnun ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasasi binosini joriy ta'mirlash ishlarini loyiha asosida bajarib berishni o'z zimmasiga oladi.

1.2. "Buyurtmachi" esa "Bosh pudratchi" gaqurilish ishlarini bajarish uchun zarur bulgan sharoitlarni tegishli loyiha hujjatlari bilan ta'minlash. Bajarilgan Chiroqchi tuman 19-imkoniyati cheklangan bolalar ucnun ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasasi binosini joriy ta'mirlash ishlarini tegishli tartibda qabul qilib, to'lov ishlarini amalga oshirish majburiyatini o'z zimmasigaoladi.

1.3. Mazkur shartnoma nituzishda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021 yil 22 aprildagi UPQ-684-sonli «Davlatxaridlari to'g'risagi»qonuniga tayangan holda amalga oshiriladi.

1.4.Ushbu shartnoma O'zbekiston Respublikasi Tovar-xomashyo birjasining 15.07. 2022 yildagi №-119517-lotiga asosan amalga oshirildi.

1.3.Ob`yektda Chiroqchi tuman 19-imkoniyati cheklangan bolalar ucnunixtisoslashtirilgan ta'lim muassasasi binosini joriy ta'mirlash ishlarini bajarish muddati 2022yil 19 .07. dan 2022 yilning 31 dekabrigacha.

## 2. SHARTNOMA BAHOSI.

2.1. Mazkur shartnoma bo`yicha "Bosh pudratchi" tomonidan bajariladigan joriy ta'mirlash ishlari qiymatini o`zichiga olgan holda 528.525.398 (Besh yuz yigirma sakkiz million besh yuz yigirma besh ming uch yuz to'qson sakkiz ) so`m.

2.2.Qurilish bahosi va muddati mazkur shartnomada nazarda tutilishi mumkin bo`lgan qurilish hajmining oshishi yoki kamayishini Chiroqchi tuman №19-imkoniyati cheklangan bolalar ucnun ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasasi binosini joriy ta'mirlash ishlari bajarilgunga qadar hukumat qaroriga ko`ra qiymatliklaro'zgartirilganligini fors-major holatlarini istisno etgan holda qat'iy sanaladi.

2.3.Tegishli asoslar mavjud bo`lgan taqdirdagina shartnoma bahosiga oid o'zgartirishlar shartnomaga qo'shimcha bitim bilan rasmiylashtiriladi.

## 3. SHARTNOMA BO`YICHA MAJBURIYATLARI.

"Bosh pudratchi

3.1.Barcha joriy ta'mirlash ishlarini mazkur shartnomaga ilova qilingan loyiha ishlarida ko'rsatilgan hajmda va belgilangan muddatda o'zining kuchlarini yoki jalb qilingan uchinchi shahslar yordamida bajarish hamda shartnoma shartlariga ko'ra"Buyurtmachi" ga topshirish.

3.2.O`zi jalb qilgan uchinchi shahslar tomonidan bajarilgan 19-imkoniyati cheklangan bolalar ucnun ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasasi binosini joriy ta'mirlash ishlari sifatiga, muddati uchun javobgar bo`lish.

3.3. "Buyurtmachi" ni o`zi bilan uchinchi (Sub pudratchi) shahslar o'rtasida tuzilayotgan shartnoma haqida habardor qilish.

3.4."Buyurtmachi" yetkazib bergan va o`z kuchi mablag'l evaziga tashib keltirilgan qurilish materiallari va konstruksyalarni ularga zarar etmagan holda saqlash.

3.5. 19-imkoniyati cheklangan bolalar ucnun ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasasi binosini joriy ta'mirlash ishlari bajarilayotgan ob`yekt ekologiya va tozalikka rioya etgan hold atexnika va yong'in havfsizligi tadbirlarini ta'minlash.

3.6. O`zi tomonidan keltirilgan qurilish materiallarining loyihada nazarda tutilgan talablarga (standard vax.k) javob berishini ta'minlash.

"Buyurtmachi":

3.7.Kalendar ish rejasida belgilangan tartibda lekin shartnoma imzolangan kundan e`tiboran 5 kun muddat ichida ob'yekt maydoni va loyiha hujjatlarini "Bosh pudratchi" ga topshirish.

3.8. Shartnomada nazarda tutilgan miqdorda va muddatda bajarilgan joriy ta'mirlashi shlari uchun "Bosh pudratchi" ga ҳaq to`lash.

3.9."Bosh pudratchi" ning yozma talab, iltimos to`lov va etirozlari 5 kunlik muddat ichida o'rganilib chiqib munosabat bildirish.

3.10. Kalendar ish rejasi asosida bajarilgan ishlarni tegishli tartibda qabul qilib olish.

## 4. TO'LOV VA HISOB-KITOBLAR

4.1. Mazkur shartnoma Uzbekiston Respublikasi Byudjet kodeksiga muvofik tegishli tartibda Gaznachilik Bo`linmalarida ro`yxatdan o`tkazilgan kundan boshlab qonuniy kuchga kiradi va tomonlar ushbu shartnoma bo`yicha o`z majburiyatlarini to`liq bajarishi uchun asos hisoblanib,to`lovlar, olinadigan mahsulot uchun buyurtmachi oldindan 30% foizini oladi va qolgan 70 % foizi taqdim etilgan bajarilgan ishlarni tasdiqlovchi F-3 va F-5ga asosan o`tkazib beriladi.
4.2. Bajarilgan ishlarda aniqlangan kamchiliklar bartaraf etilmagunga qadar to`lovishlari kechiktirilishi mumkun.

## 5. ISHLARNI OLIB BORISH VA KAFOLAT MUDDATI.

5.1. "Buyurtmachi" qurilish ob`yektiga o'z vakili "Texnik Nazoratchi" tayinlaydi. U "Buyurtmachi" nomidan ishlarning hajmi va sifati, materiallari hamda boshqa ashyolarni shartnoma shartlari va loyihahujjatlari talablariga mosligini tekshirib, bajarilgan ishlar dalolatnomasini rasmiylashtiradi.

5.2.Joriyta'mirlash ishlari mazkur shartnomaga ilova qilingan ish grafigi, calendar ishrejasiga ko`rsatilgan muddatgacha "Pudratchi" tomonidan bajariladi.

5.3.Qurilish maydonida bajarilgan joriyta'mirlash ishlarini loyiha hujjatlari va qurilish qonun qoidalari talablariga javob berish uchun "Bosh pudratchi" ma'sul sanaladi.

5.4. Ob'yekt va unga kiradigan muhandislik tizimlarini qurilish materiallari, jihozlaridan foydalanish va ishlarini kafolat lik muddati tomonlarqurilish tugallangan ob'yekt qabul qilibolish to`grisidagi dalolatnomani imzolagandan so'ng12 oy ob'yektning kafolatli muddati belgilanadi.

5.5. Sifatsiz bajarilgan ishlarni qayta tiklash uchun sarf qilingan qushimcha harajatlar shartnoma qiymatidan tashqari bo'lib, aybdor hisobidan qoplanadi.

5.6. Sifatsiz va kamchilik bilan bajarilgan ish aniqlanganligi hususidagi dalolatnoma bilan tomonlar kelisha olmasalar, ekspert mutaxassis tayinlanadi yohud xo`jalik sudi tartibida hal qilinadi.

## 6. QURILISHNI CONSERVASIYALASH VA FORS- MAJOR XOLATI.

6.1. Qurilishni konservasiyalashda taraflar majburiyatlarining ijro muddatini bartaraf etib bo`lmaydigan vaziyat (fors major) 1 oydan ortiq davom etadigan bo`lsa, qurilishni noma'lum muddatga to`xtatish (conservatsionlash) uchun chora-tadbirlarni kurishni muhokama etadilar. vaziyat (fors major) bir to`xtamga kelinmasa, 2 oy mobaynida taraflar shartnomani bekor qilishni talab qilishga haqlidirlar.

6.2. Tomonlarning xohish-istagiga bog'liq bo'lmagan, ularni oldindan bilish yoki oldini olish imkoniyati bo'lmagan holatlar sifatida quyidagilar nazarda tutiladi: Yengib bo'lmas kuch sifatida tabiiy ofatlar; Yangi qabul qilingan qonun hujjatlari asosida qurilish ishlarining bajarilmay qolinishi uchun javobgarlikdan ozod bo'ladilar .

6.3. Qurilish ob'yektga tulaligicha konservfsiya qilish haqidagi qaror qilingan kunga qadar bajarilgan ishlar haqqi to'liq to'lanadi.

## 7. SHARTNOMANI BEKOR QILISH.

7.1. «Byurtmachi» «Pudratchi»ning aybi bilan qurilish grafik rejasi va loyiha shartlarida ko'satilgan ishlarning bajarilishi bir oydan ortiq vaqtda to'xtatilganda , ish sifati buzilganda , «Pudratchi» yuridik shahs sifatida qonunda belgilangan tartiblarda aniqlanganda, aniqlangan kamchiliklarni bartaraf etishdan asossiz bosh tortganda qonun hujjatlariga muvofiq boshqa asoslar bo'icha shartnomaning bekor qilinishini talab qilish huquqiga ega.

7.2. "Bosh pudratchi" "Buyurtmachi" tomonidan asossiz ravishda 1 oydan ortiq vaqt mobaynida qurilish ishlari tuxtatilib qo'yilganda, moliyalashtirishni to`xtatib quyish huquqiga egadir.

7.3. Shartnomani bekor qilish haqidagi talablar taraflar bir-birini yozma ravishda habardor qilingan holda 1 oylik muddat ichida kurib chiqilib, hal qilinadi. Shartnomani asossiz bir tomonlama bekor qilinishiga yo`l qo'yilmaydi.

7.4. Shartnoma bekor qilinganda aybdor tomon ikkinchi tomonga etkazilgan zarar va boy berilgan foydani tulaydi.

## 8. Tomonlarning mullkiy javobgarligi.

8.1. "Buyurtmachi" "Pudratchi" ga har bir kun uchun majburiyatining bajarilmagan qismini 0.4% miqdorida penya to`laydi. Penya bajarilmagan majburiyatning 20 % idan oshmasligi lozim.

8.2. Shartnomaga muvofiq bajarilgan ishlar hajmini tasdiqlashdan asossiz bosh tortganligi uchun "Buyurtmachi" "Bosh pudratchi" ga o`zini tasdiqlashni rad etgan summaning 5% miqdorida jarima to`laydi.

8.3. "Bosh pudratchi" "Buyurtmachi" ga o'z majburiyatlarini bajarmagan qismini 0.5% miqdorida har bir kechiktirilgan kun uchun penya to`laydi. Penya bajarilmagan majburiyatining 50% idan oshmasligi lozim.

8.4. "Bosh pudratchi" tomonidan bajarilgan ishlar sifati shartnomada va loyihada belgilangan va boshqa qonun talablariga javob bermasa, sifatsiz bajarilgan ish hajmi qiymatining 10% miqdorida "Buyurtmachi" ga jarima to`laydi.

8.5. "Buyurtmachi" dan olingan foydalanilmagan qurilish materiallari va boshqa ashyolar bir oylik muddat ichida qaytarilmasa, qaytarilmagan mulkning 10% miqdorida jarima qo'llanishiga sabab bo`ladi.

## 9. ALOHIDA QOIDALAR.

9.1. "Bosh pudratchi" o'z kuchi mablagi bilan olib kelgan qurilish materiallari va boshqa ashyolarning shartnoma va hamda loyiha talablariga mos kelishi haqida sertifikat va texnik passportlari bo'lishini ta'minlashi shart.

9.2. Qurilish materiallari va boshqa ashyolar "Bosh pudratchi" tomonidan markazlashtirilgan omborlar orqali "Bosh pudratchi" ning yozma orqali beriladi.

9.3. Joriy ta'mirlash ishlarini bajarish uchun zarur bo`lgan transport vositalari mahsus transportlar "Yordamchi pudratchi" ixtiyorida bo`lmasa, "Bosh pudratchi" tomonidan markazlashtirilgan usulda ta'minlanadi.

9.4. Qurilish materiallari va boshqa ashyolardan hamda transport vositalaridan foydalanganlik uchun hisob-kitob qilish shartnoma doirasida amalga oshiriladi.

9.5. Shartnoma loyiha hamda qonun talablariga javob bermaydigan material va uskunalardan foydalanish taqiqlanadi.

## 10. SHARTNOMAGA QO`SHIMCHA VA O'ZGARTIRISHLAR KIRITISH.

10.1. Shartnomaga qo'shimcha va o'zgartirishlar kiritish ikkala tomonni roziligiga asosan yozma ravishda bildiriladi.

## 11. SHARTNOMANING AMAL QILISH MUDDATI.

11.1. Shartnomani amal qilish muddati shartnoma ikki tomon o'rtasida imzolanib, G'aznachilik bo'linmasi tomonidan ro`yxatga olingan kundan boshlab yuridik kuchga ega bo`ladi va 2022-yil 31 dekabrga qadar amal qiladi.

## 12. KORRUPSIYAGA QARShI ShARTLAShUV

12.1. Ushbu shartnomaning har bir tomoni o'ziga nisbatan qo'llaniladigan barcha, shu jumladan O'zbekiston Respublikasi amaldagi qonunchilik va normativ hujjatlaridagi korrupsiyaga qarshi tegishli shartlar va talablarni tushunishi haqida bir-birini ishontiradi va ularga amal qilishini kafolatlaydi.

12.2. Iste'molchi ushbu shartnoma amalda bo'lgan butun davr mobaynida u (shuningdek uning mansabdor shaxslari, direktori, xodimlari, agentlari va boshqa vakillari) Ta'minotchi korxonaning manfaatlarida uning agenti yoki vakili sifatida harakat qilib, Pudratchi korxonaning hamda O'zbekiston Respublikasi amaldagi qonunchilik va normativ hujjatlarining korrupsiyaga qarshi tegishli shartlari va talablariga qat'iy rioya etish majburiyatini oladi

## 13. TOMONLARNING BAHK PEKVIZITLARI VA YURIDIK MAHZILLARI.

**BUYURTMACHI.**

Nomi: №19-imkoniyati cheklangan bolalar ucnun ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasasi

Manzili: Chiroqchi tuman Zarbdor MFY

SHx/r 100021860102427092400075001

INN 200810370 Oz.R. Moliya Vazirliga Gaznachiligi

Bank- Tashkent sh. Markaziy Bank BB KhKKM

X/r: 23402000300100001010

INN: 201 122 919 MFI: 00014

Rahbar_______________Z.Nazarova.

M.U.M.U.

**PUDRATCHI.**

Nomi; "SHOXRUHMIRZO TEXNOLOGIYA" MCHJ

Manzili: Chiroqchi tuman Yangiobod k 18

x/r 20208000600492671001

INN 303336719

BANK;KKB Kukdala filiali

MFO;01037

Rahbar_______________U.Mirzayeva.

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
ADVOKATLAR PALATASI

«YANGIBOYEV MURODJON»
ADVOKATLIK FIRMASI

ПАЛАТА АДВОКАТОВ
РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН

АДВОКАТСКАЯ ФИРМА
«YANGIBOYEV MURODJON»

Ўзбекистон Республикаси, Қашқадарё вилоят, Чироқчи шаҳар, Чоштепа кўчаси, 1-уй
Ҳ/р 20212000700553821001 ИНН 303668044 МФО 00175 ОКОНХ 97820
АКИБ «Микрокредит банк» Чироқчи филиали
Тел.: +99890 6391164, 5623023

2022 йил 19 июль

Чироқчи шаҳри

## ЮРИДИК ХУЛОСА
**№ 2**

Ўз Низоми асосида фаолият кўрсатаётган шартнома тузишда пудратчи бўлиб қатнашаётган Чироқчи туманидаги «SHOXRUXMIRZO TEXNOLOGIYA» масъулияти чекланган жамият ва шартнома тузишда «Буюртмачи» бўлиб иштирок этувчи Чироқчи туманидаги 19-сонли-ихтисослаштирилган таълим муассасаси ўртасида 528.525.398 (беш юз йигирма саккиз миллион беш юз йигирма беш минг уч юз тўқсон саккиз) сўмлик жорий таъмирлаш ишларини бажариш тўғрисидаги 2022 йил 19 июлдаги №1-сонли шартнома лойиҳаси юзасидан Чироқчи туман **« МУНИС ҲИМОЯСИДА»** адвокатлик бюроси адвокати (лицензия KS №000145 Қашқадарё вилоят адлия бошқармаси томонидан 2020 йил 19 мартда берилган) Очилова Мавлуда Алимовнанинг

## Х У Л О С А С И:

Ушбу шартнома лойиҳсини амалдаги Ўзбекистон Республикаси Фукаролик Кодекси ва «Хўжалик юритувчи субъектларнинг шартномавий хуқуқий базаси тўғрисида»ги Қонун хамда амалдаги бошқа қонун хужжатлари асосида хуқуқий экспертиза қилиб, ушбу шартномани имзоловчилар: Чироқчи туманидаги « «SHOXRUXMIRZO TEXNOLOGIYA» масъулияти чекланган жамият рахбари Мирзаева Умида ва Чироқчи туманидаги 19-сонли-ихтисослаштирилган таълим муассасаси директори Назарова Зебинисо Ҳакимовна шартнома тузиш ҳуқуқига эга эканлигини, шартнома тузишда иштирок этувчи тарафларнинг банк реквизитлари тўғри булиб, тўлов қобилиятига эга эканлигини ва шартнома лойиҳасининг шартлари, хусусан тарафларнинг ҳуқуқлари ва мажбуриятлари, ҳисоб-китоб қилиш тартиби, тарафларнинг жавобгарлиги, низоларни ҳал қилиш тартиби, форс–мажор ва жавобгарликдан озод қилиш масалалари амалдаги қонунчилик ҳужжатларига мос келишлигини аниқладим.

Шу боис шартномани имзолаш мумкин деб ҳисоблайман.

Чироқчи туман **«MUNIS HIMOYASIDA»**
адвокатлик бюроси адвокати М.А.Очилова.

**ТАНЛОВ БАЁННОМАСИ № 7**

**Чироқчи тумани** **17.07.2022 йил**

Чироқчи туман №19 Имконияти чекланган болалар учун ихтисослаштирилган таълим муассасаси ошхона биносини жорий таъмирлаш ишлари тўғрисида комиссия йиғилиши.

Комиссия раиси; А Жаниев

Комиссия котиби; А. Норкобилов

Аъзолар С. Жаниев

Аъзолар Ж Эшонкуло

Аъзолар Н Пиримова

Аъзолар А. Бердиёров

**Кун тартибида куриладиган масала.**

Чироқчи туман №19 Имконияти чекланган болалар учун ихтисослаштирилган таълим муассасаси ошхона биносини жорий таъмирлаш ишларини бажариш тўғрисида Комиссия раиси А. Жаниев сўзга чиқиб ташкилотларнинг Чироқчи туман №19 Имконияти чекланган болалар учун ихтисослаштирилган таълим муассасаси ошхона биносини жорий таъмирлаш ишлари учун товар хом ашё биржасига (10.07.2022 йилдаги №119517 сонли лотига асосан элон қилинган ва танлов асосида 8 (саккиз) та пудратчи ташкилотлардан хизмат таклифлари келиб тушганлиги , ушбу таклифлар асосида танлов иштирокчиларнинг солохияти, ишларни бажаришда фойдаланиладиган машина ва механизимлар мавжудлиги ва танлов иштирокчиси ҳақидаги ўмумий маълумотлари ўрганиб чиқиб пудратчи ташкилотлар танлов асосида кўриб чиқиш керак эканлиги билдирилди. Чироқчи туман №19 Имконияти чекланган болалар учун ихтисослаштирилган таълим муассасаси ошхона биносини жорий таъмирлаш ишларини бажаришга 8 та пудратчи ташкилотлардан шу таклифлар ичида яхши ва биз учун мақўл бўлган таклифларни танлашимиз керак. Танлов асосида пудратчи ташкилотлар томонидан таклиф қилинган маълумотлар қўйдаги жадвал асосида куришимиз мумкун.

1. **№1 Танлов иштирокчисиинг САЛОХИЯТИ**

| **Пудратчилар номи** | **Макс бал** | **Ер майдони мавжудлиги** | **Балл иштиро кчилар** | **Тип оценки** | **Пирме чание** | **Камч пиклар** |
|---|---|---|---|---|---|---|
| YOMG'IRCHAYEV OYBEK MCHJ | 30 | bor | 22 | экспертная | | |

| | | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|---|
| OOO NURISTON NTRC GROUP | 30 | Файл илова қилинади | 3 | экспертная | | |
| MCHJ SHOHPUXMIRZO NTXNOLOGIYA | 30 | Солиқ ва банкдан маълумотнома | 30 | экспертная | | |
| QILICHBEK PLYUC OG'ABEK MCHJ | 30 | Солиқ ва банкдан маълумотнома | 13 | экспертная | | |
| ЧПPARDOZCHI-MUXANDIS | 30 | Танлов иштирокчисининг салохияти бизда мавжуд | 3 | экспертная | | |
| ШАВА ШЕР ИНВЕСТ МЧЖ | 30 | Танлов иштирокчисининг салохияти | 7 | экспертная | | |
| SHIROQCHI BUNYODKOR MEGA INVECT MCHJ | 30 | Танлов иштирокчисининг салохияти | 21 | экспертная | | |
| SHAROFAT MAJIDOVNA | 30 | Танлов иштирокчисининг салохияти | 18 | экспертная | | |

2. **№2 Ишларни бажаришда фойдаланиладиган танлов иштирокчисининг машина ва механизмлари мавжудлиги.**

| **Пудратчилар номи** | **Макс бал** | **Ер майдони мавжудлиги** | **Балл иштиро кчилар** | **Тип оценки** | **Пирме чание** | **Камч иклар** |
|---|---|---|---|---|---|---|
| YOMG'IRCHAYEV OYBEK MCHJ | 40 | bor | 15 | экспертная | | |
| OOO NURISTON NTRC GROUP | 40 | Файл илова қилинади | 22 | экспертная | | |
| MCHJ SHOHPUXMIRZO NTXNOLOGIYA | 40 | Машина ва механизмлар мавжуд | 39 | экспертная | | |
| QILICHBEK PLYUC OG'ABEK MCHJ | 40 | Хужжатлар электрон тартибда илова қилинади | 21 | экспертная | | |
| ЧПPARDOZCHI-MUXANDIS | 40 | Ишларни бажаришда фойдаланиладиган танлов иштирокчисининг машина ва механизмлар бизда мавжуд | 26 | экспертная | | |
| ШАВА ШЕР ИНВЕСТ МЧЖ | 40 | Ишларни бажаришда | 24 | экспертная | | |

| | | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|---|
| | | фойдаланадиган танлов иштирокчисининг машина ва механизмлар мавжудлиги | | | | |
| SHIROQCHI BUNYODKOR MEGA INVECT MCHJ | 40 | Ишларни бажаришда фойдаланадиган танлов иштирокчисининг машина ва механизмлар мавжудлиги | 18 | экспертная | | |
| SHAROFAT MAJIDOVNA | 40 | Ишларни бажаришда фойдаланадиган танлов иштирокчисининг машина ва механизмлар мавжудлиги | 13 | экспертная | | |

3. **№3 Танлов иштирокчилари ҳақида умумий маълумотнома**

| Пудратчилар номи | Макс бал | Ер майдони мавжудлиги | Балл иштиро кчилар | Тип оценки | Пирме чание | Камч пиклар |
|---|---|---|---|---|---|---|
| YOMG'IRCHAYEV OYBEK MCHJ | 30 | bor | 18 | экспертная | | |
| OOO NURISTON NTRC GROUP | 30 | Файл илова қилинади | 1 | экспертная | | |
| MCHJ SHOHPUXMIRZO NTXNOLOGIYA | 30 | Умумий маълумотнома | 30 | экспертная | | |
| QILICHBEK PLYUC OG'ABEK MCHJ | 30 | Хужжатлар электрон тартибда илова қилинади | 22 | экспертная | | |
| ЧПPARDOZCHI-MUXANDIS | 30 | Танлов иштирокчиси ҳақида умумий маълумотнома бизда мавжуд | 12 | экспертная | | |
| ШАВА ШЕР ИНВЕСТ МЧЖ | 30 | Танлов иштирокчиси ҳақида умумий маълумотнома | 20 | экспертная | | |
| SHIROQCHI BUNYODKOR MEGA INVECT MCHJ | 30 | Танлов иштирокчиси ҳақида умумий маълумотнома | 23 | экспертная | | |
| SHAROFAT | 30 | Танлов иштирокчиси | 15 | экспертная | | |

| | | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|---|
| MAJIDOVNA | | хақида умумий маълумотнома | | | | |

Комиссия аъзолари хизмат таклифларни куриб чиқиб . Чироқчи тумандаги "SHOHPUXMIRZO NTXNOLOGIYA" МСНJ берган хизмат таклифларда курсатилган ишларни арзонлиги барча турдаги хужжатлар мавжудлигини ва бажариладиган ишларни бажариш имкониятларини куплигини хисобга олган холда қўйдагича;

Чироқчи туман №19 Имконияти чекланган болалар учун ихтисослаштирилган таълим муассасаси 2022 йил 15 июл кунидаги №7-сонли танлов баённомаси орқали ЛОТ №119517 сонли рақами билан икки иш кун муддатда давлат харидлари порталига танлов баённомаси 2022 йил 17 июл куни жойлаштирилди. Ушбу муддат ичида хеч қанақа товар (иш хизмати) етказиб берувчилар томонидан бошқа хеч қандай таклифлар ва хеч қанадай таклифлар ва хеч қанақа мурожатлар келмаганлиги сабабли юқорида утказилган баённомадаги танлов баённома ғолиби "SHOHPUXMIRZO NTXNOLOGIYA" МСНJ билан шартнома қилишга:

## ҚАРОР ҚИЛАДИ;

1. "SHOHPUXMIRZO NTXNOLOGIYA" МСНJ танлов ғолиби деб тан олинсин.
2. Шартномага имзо қуйиб тасдиқлаш касаба уюшма кумита раиси А. Жаниевга юклатилсин.
3. Ушбу жорий таъмирлаш ишлари учун пул ўтказишлик бош хисобчи У. Хазратовга юклатилсин.
4. Ушбу жорий таъмирлаш ишларини қабул қилиб олишлик С. Жаниевга юклатилсин.
5. Ушбу баённома қарорини бажарилишини назорат қилиш ва қабул қилиб олиш мактаб директори З. Назаровга юклатилсин.

Комисия раиси; А. Жаниев

Комиссия котиби; А. Норкобилов

Аъзолар С. Жаниев

Ж. Эшонкулов

Н. Пиримова

А. Бердиёров